

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**  
**2024-2025 o‘quv yili**  
**I-chorak**  
**choraklik summativ baholash**  
**test savollari.**  
**6-sinf**  
**1-variant**

1-25 matematika, 26-45 ona tili va adabiyoti.  
(B-bilish; Q-qa‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi (F.I.SH).....

**1. (B 1,3 ball)** Juft va toq sonlar uchun quyidagi mulohazalarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

Nº	Mulohazalar	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1	Juft sonning kvadrati juft son bo‘ladi		
2	Toq sonning kubi juft son bo‘ladi		
3	Ikkita toq va bitta juft son yig‘indisi juft son bo‘ladi		

- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri      B) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri  
C) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri      D) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri

**2. (B 1,3 ball)** 10 va 40 ning orasidagi eng katta va eng kichik tub sonlar yig‘indisini toping.

- A) 49      B) 51      C) 50      D) 48

**3. (B 1,3 ball)** Quyidagi kasrlardan nechtaşı  $\frac{18}{24}$  ga teng:

$$\frac{9}{16}; \frac{3}{4}; \frac{9}{12}; \frac{27}{36}; \frac{27}{32}$$

- A) 3 ta      B) 2 ta      C) 4 ta      D) 5 ta

**4. (B 1,3 ball)** O‘zaro teskari bo‘lgan sonlar juftligini toping va mos keltiring.

1. $\frac{8}{10}$	A. $\frac{4}{7}$
2. $1\frac{3}{4}$	B. $1\frac{1}{4}$
3. $\frac{3}{4}$	C. $\frac{4}{5}$
	D. $1\frac{1}{3}$

- A) 1 – B; 2 – C; 3 – D.      B) 1 – B; 2 – A; 3 – D.  
C) 1 – C; 2 – D; 3 – B.      D) 1 – C; 2 – A; 3 – D.


**5. (Q 1,6 ball)** Ushbu  $77 * +330$  yig‘indi 2 ga bo‘linishi uchun yulduzcha (\*) o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘lgan raqamlar yig‘indisini toping.

- A) 22      B) 18      C) 20      D) 25

**6. (Q 1,6 ball)** 2 ga bo‘linadigan lekin 3 ga bo‘linmaydigan dastlabki 5 ta ikki xonali sonlar yig‘indisini toping.

- A) 82      B) 86      C) 84      D) 80

**7. (Q 1,6 ball)** Quyidagi ko‘paytuvchilar daraxtini to‘ldiring va aylanalarga to‘g‘ri keladigan sonlar yig‘indisini toping.



- A) 10      B) 6      C) 12      D) 9

**8. (Q 1,6 ball)** 6 sinfda 48 ta o‘g‘il bola va 36 ta qiz bola o‘qiydi. Bu o‘quvchilardan bir xil tarkibli (qizlar soni ham teng, o‘g‘il bolalar soni ham teng) guruhlar tuzildi. Har bir guruhdagi o‘g‘il bolalar soni eng kami bilan nechta bo‘lishini toping.

- A) 6      B) 3      C) 4      D) 12

**9. (Q 1,6 ball)** 36, 54 va 60 sonlarining EKUKini toping.

- A) 1080      B) 540      C) 270      D) 180

**10. (Q 1,6 ball)** Tenglamani yeching.

$$\frac{4}{9} = \frac{12}{x+8}$$

- A) 9      B) 16      C) 18      D) 19

**11. (Q 1,6 ball)**  $\frac{8}{11}$  va  $\frac{4}{5}$  sonlar orasida maxraji 55 ga teng bo‘lgan nechta kasr bor?

- A) 6 ta      B) 4 ta      C) 3 ta      D) 5 ta

**12. (Q 1,6 ball)** Kasrlarni qisqartiring, so‘ngra umumiy maxrajga keltiring.  $\left(\frac{9}{21}; \frac{20}{32}\right)$

- A)  $\left(\frac{24}{56}; \frac{35}{56}\right)$     B)  $\left(\frac{21}{56}; \frac{35}{56}\right)$     C)  $\left(\frac{24}{56}; \frac{42}{56}\right)$     D)  $\left(\frac{21}{56}; \frac{42}{56}\right)$

**13. (Q 1,6 ball)** Berilgan sonlarni o‘sish tartibida joylashtiring:

$$a = \frac{9}{10}; \quad b = \frac{4}{5}; \quad c = \frac{24}{25}; \quad d = \frac{47}{50}$$

- A)  $a < b < d < c$       B)  $c < d < a < b$

- C)  $b < a < c < d$       D)  $b < a < d < c$

**14. (Q 1,6 ball)** A ning qiymatini toping.  $\frac{2}{9} + \frac{7}{18} - \frac{4}{90} = \frac{5}{9}$

- A) 5      B)  $\frac{1}{5}$       C) 15      D) 1

**15. (Q 1,6 ball)** Uchburchakning tomonlari  $1\frac{4}{9}$  m,  $1\frac{10}{18}$  m va  $1\frac{18}{27}$  m ga teng. Shu uchburchak perimetrini toping.

- A)  $4\frac{2}{3}$  m      B)  $4\frac{19}{90}$  m      C)  $3\frac{26}{27}$  m      D)  $4\frac{19}{90}$  m

**16. (Q 1,6 ball)** Tenglamani yeching:

$$\left(x - 2\frac{13}{15}\right) - 1\frac{6}{10} = 3\frac{17}{60}$$

- A)  $7\frac{3}{4}$       B)  $8\frac{1}{4}$       C)  $7\frac{4}{6}$       D)  $7\frac{1}{4}$

**17. (Q 1,6 ball)** Hisoblang:  $\frac{28}{95} \times \frac{3}{8} \times \frac{6}{7}$

- A)  $\frac{18}{95}$       B)  $\frac{11}{95}$       C)  $\frac{9}{95}$       D)  $\frac{9}{26}$

**18. (Q 1,6 ball)** Hisoblang:  $3\frac{3}{14} \times 1\frac{6}{15}$

- A) 9      B)  $4\frac{1}{2}$       C)  $\frac{2}{9}$       D)  $3\frac{1}{2}$

**19. (Q 1,6 ball)** Avtomobil 66 km/h tezlik bilan 2 soat-u 30 minut, 45 km/h tezlik bilan 2 soat-u 20 minut yo‘l yurdi. Avtomobil jami necha km yo‘l yurgan?

- A) 340 km      B) 270 km      C) 370 km      D) 260 km

**20. (Q 1,6 ball)** Uchburchakning perimetri 156 cm ga teng. Uning bir tomoni perimetrining  $\frac{3}{13}$  qismiga, ikkinchi tomoni  $\frac{4}{13}$  qismiga teng bo‘lsa, uchburchakning uchinchi tomoni uzunligini toping.

- A) 84 cm      B) 76 cm      C) 72 cm      D) 94 cm

**21. (Q 1,6 ball)** Buyumning narxi 36000 so‘m edi. Buyum bu narxning avval  $\frac{1}{4}$  qismiga arzonlashdi. Keyin yangi narxining  $\frac{2}{5}$  qismiga qimmatlashdi. Ma’lum vaqt dan so‘ng buyum oxirgi narxning  $\frac{1}{3}$  qismiga qimmatlashdi. Nodirning 50000 so‘m puli bor. Uning puli bu buyumni sotib olish uchun yetadimi?

- A) yo‘q yetmaydi, 400 so‘m kerak bo‘ladi;      B) ha yetadi, 600 so‘m ortib qoladi;  
C) yo‘q yetmaydi, 600 so‘m kerak bo‘ladi;      D) ha yetadi, 400 so‘m ortib qoladi;

**22. (Q 1,6ball)** Ifodaning qiymatini  $a = 15$  bo‘lganda hisoblang:

$$4\frac{11}{15} \times a - 3\frac{4}{5} \times a + 1\frac{1}{15}a$$

- A)  $\frac{1}{15}$       B) 30      C) 15      D) 60

**23. (M 2 ball)** Agar EKUB( $a, b$ ) = 48 va EKUK( $a, b$ ) = 288 bo‘lib,  $a$  va  $b$  sonlari bir-biriga bo‘linmasa,  $a + b$  ni toping.

- A) 240      B) 320      C) 280      D) 360

**24. (M 2 ball)** Hisoblang:

$$\frac{1}{12} + \frac{1}{20} + \frac{1}{30} + \frac{1}{42} + \dots + \frac{1}{342}$$

- A)  $\frac{16}{57}$       B)  $\frac{27}{57}$       C)  $\frac{1}{9}$       D)  $1\frac{5}{57}$

**25. (M 2 ball)** Bo'sh hovuz birinchi quvur orqali 15 soatda, ikkinchi quvur orqali 12 soatda to'ladi. Ikkala quvur bir vaqtda ochilsa, birlgilikda bo'sh hovuzni necha soatda to'ldiradi?

- A)  $6\frac{2}{3}$  soatda    B)  $6\frac{1}{3}$  soatda    C)  $5\frac{2}{3}$  soatda    D)  $7\frac{1}{3}$  soatda

**26. (B – 2,5)** Bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'g'inga ajratilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) lan-gar, me-nnga, ko'n-gil-chan    B) so'ng-ra, ta-mad-dun, xa-yo-lan  
C) yen-gil, she'riy-at, sat-hi    D) den-giz, kech-ir-im-li, ma'lu-mot

**27. (B – 2,5)** Qo'shma so'zlar qatorini aniqlang.

- A) jimjit, tomma-tom, hamsuhbat    B) jigarrang, bedapoya, qo'lqop  
C) ko'ngilochar, sap-sariq, kamhosil    D) rang-barang, tez-tez, xonatlas

**28. (B – 2,5)** Parchada qo'llangan ko'pnuqtaning qo'llanish sababi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

– Bir, iikki, **uuuchch...** Kutilmaganda cholga urilib ketgan bolakayning ko'zlarida qo'rquv bor edi.

- A) Dialogda suhbatdoshning gapi javobsiz qolgani uchun.  
B) Matndan ayrim qismlar olib tashlangani uchun  
C) Gap mazmunan tugallanmay qolgani uchun.  
D) So'zlovchining cheksiz his-hayajoni ifodalangani uchun.

**29. (Q – 4,5)** Ushbu parchadagi fe'llarning shaxs va soni to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

Bog'bon olmazorni ko'rsatdi, bolalar olmalardan tatib ko'rishdi. Tushgacha mevalarni terib, savatchalarga joylashdi. So'ng ro'yxat bo'yicha xonadonlarga tarqatishga kirishildi.

- A) II shaxs; faqat ko'plik son shaklida    B) II shaxs; ko'plik son shaklida  
C) III shaxs; faqat birlik son shaklida    D) III shaxs; birlik va ko'plik son shaklida

**30. (Q – 4,5)** Matndan undalma va undalmalarga tegishli (tushirib qoldirilgan) tinish belgilar to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang.

Onasi uni nonushtaga chaqirar ekan, so'radi:

- Bugun maktab bog'ida hashar bor edi, uxlab qolibsan-ku o'g'lim?  
– Esimdan chiqib qolibdi oyi, – yolg'on gapirdi Dilshod.

- A) undalmalar: o'g'lim, onasi; tinish belgilar: vergul, tire  
B) undalmalar: o'g'lim, so'radi; tinish belgilar: vergul, vergul  
C) undalmalar: o'g'lim, oyi; tinish belgilar: vergul, vergul  
D) undalmalar: o'g'lim, Dilshod; tinish belgilar: vergul, tire

**31. (Q – 4,5)** Berilgan so'zlarni ma'nodoshlari bilan moslashtiring.

- 1) bo'ysunmoq, 2) xursand bo'lmoq, 3) hordiq chiqarmoq, 4) tuzalmoq.  
a) dam olmoq, b) itoat etmoq c) sog'aymoq, d) sevinchi ichiga sig'may, e) gapidan chiqmay,  
f) shifo topmoq.

- A) 1 – b, e; 2 – d; 3 – a; 4 – c, f.    B) 1 – a, f; 2 – d; 3 – b; 4 – c, e.  
C) 1 – d, f; 2 – a; 3 – b; 4 – c, e.    D) 1 – d, c; 2 – a; 3 – e; 4 – f, b.

**32. (Q – 4,5)** Ushbu parchada qo'llangan fe'llar haqidagi to'g'ri javobni aniqlang.

– Menga esa Qor malikasining muz saroyi yoqadi. Hayron bo'lmanq, do'stim, chunki qorni faqat ekranda tomosha qilganman-da. Bizning iqlimimiz issiqligi uchun kamdan kam qor yog'adi, – dedi Bilol.

- A) qo'shma fe'llar soni ikkita; fe'llar tarkibida bo'lishsiz fe'l mavjud.  
B) barcha fe'llar sodda yasama fe'l; fe'llar I va II shaxs birlik son shaklida.  
C) fe'llar I, II va III shaxsni ifodalagan; barcha fe'llar bo'lishsiz fe'l.  
D) fe'llar tarkibida bo'lishsiz fe'l mavjud emas; barcha fe'llar ko'plik son shaklida.

**33. (Q – 4,5)** She'riy matnda qo'llangan son so'z turkumiga oid so'zlarning qaysi biriga - ovlon qo'shimchasi qo'shilsa, tovush o'zgarish hodisasi sodir bo'ladi?

Bir raqamlar boshiman, derdi,  
To'qqiz zo'rdek ko'ksini kerdi.

Yetti esa: "sirliman", dedi,

Olti undan qolishmas edi.

Sakkiz, besh, to'rt, ikki hamda uch,

Maqtandilar ne so'z bo'lsa duch...

- A) ikki, uch, olti      B) sakkiz, besh, to'rt    C) yetti, olti, ikki   D) besh, to'rt, ikki

**34. (Q – 4,5)** Ot so'z turkumiga oid so'zlar keltirilgan qatorni aniqlang.

Bola mashinaga chiqar ekan: – "Qor malikasi" kitobini senga sovg'a qilaman, – dedi.

A) mashina, "Qor malikasi" kitobi, sen, sovg'a qilaman

B) bola, mashina, "Qor malikasi" kitobi

C) "Qor malikasi" kitobi, sovg'a qilaman

D) bola, mashina, "Qor malikasi" kitobi, sovg'a qilaman

**35. (M – 5,5)** O'zaro bog'liq matnlarni ajrating.

1. Ertasi kuni Eldor chizgan rasmlarini maktab burchagiga ilib qo'ysi. Rasmlarining birida daraxtni quchib turgan katta va kichik bolalar, daraxt yonida ikkita bolasi bilan Turon yo'lbarsi, ortida mavjlanib turgan dengiz tasvirlangan edi.

2. U o'rmon atrofidagi qishloq aholisining yaroqsiz qog'oz va eski kitoblarini yig'a boshlabdi. Chunki ularni qayta ishlash uchun topshirsa, qancha daraxtni kesilishdan asrab qolishini bilardi-da.

3. Birpasda bolalar rasm atrofini o'rab olib muhokama qilishga tushib ketishdi. Bir-birlariga javobsiz savollar yog'dirishdi:

– Nahot shuncha narsani boy berdik? Nima qilsak, zaminimizni qutqaramiz?

4. Darsdan so'ng bolalar qilmoqchi bo'lgan ishlarini rejalashtirib olish uchun Eldorning bobosidan maslahat so'rashga kelishib oldilar.

5. U o'rmondagi ildizini qurt kemirayotgan qarag'ayga, oyog'iga zirapcha kirgan arslonga ham yordam beribdi.

A) 3-, 5-matnlar o'zaro; 1-, 2- va 4-matnlar o'zaro bog'liq

B) 1-, 2-, 4-matnlar o'zaro; 3- va 5-matnlar o'zaro bog'liq

C) 2-, 4-matnlar o'zaro; 1-, 3- va 5-matnlar o'zaro bog'liq

D) 1-, 3-, 4-matnlar o'zaro; 2- va 5-matnlar o'zaro bog'liq

**36. (B – 2,5)** "Shum bola" qissasidagi voqealar kimning nomidan bayon qilinadi?

A) uchinchi shaxs nomidan      B) birinchi va ikkinchi shaxs nomidan

C) bosh qahramon nomidan      D) birinchi va uchinchi shaxs nomidan

**37. (B – 2,5)** Badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lmish o'xshatish san'ati haqidagi to'g'ri

ma'lumot keltirilgan qatorni aniqlang.

1. O'xshatishda bir shaxs, narsa yoki holat boshqa narsaga o'xshatiladi, qiyoslanadi.
2. O'xshatish orqali tasvirlanayotgan shaxs, narsa yoki holatning bir xususiyatiga alohida urg'u beriladi.
3. Ko'p holatlarda o'xshatish “-dek”, “-day” qo'shimchalari yoki “kabi”, “o'xshab” so'zlari orqali ifodalanadi.
4. O'xshatishda o'xshatilmish, asos va vosita bo'lmaydi.

- A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 3, 4      C) 2, 3, 4      D) Faqat 2

**38. (B – 2,5)** Ushbu parcha haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

“Oilamiz boshiga musibat tushgan o'sha mash'um kundan bir necha oy muqaddam dadam uyimizdagi deyarli barcha kitoblarni uch-to'rt qopga solib, beda tagiga yashirgan-u, boloxona eshidiga otning kallasidek qulf osib qo'ygandilar. Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu'lasiga solib, tomosha qilib o'tirishni yoqtirardim”.

- A) Ushbu parcha Odil Yoqubovnihg “Yaxshilik” hikoyasidan keltirilgan  
B) Ushbu parcha G'afur G'ulomning tarjimayi holidan keltirilgan  
C) Ushbu parcha Abdulla Qahhorning tarjimayi holidan keltirilgan  
D) Ushbu parcha Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasidan keltirilgan

**39. (Q – 4,5)** Ushbu badiiy parcha haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang

“...Bir hovuch suvni lazzat bilan simirib turgan edim **gard namoyon bo'ldi**. Gard orasidan oriq baytalga bir chol paydo bo'ldi. Men uning bariga yopishib meni ham o'tkazib qo'yishini iltimos qildim”

- A) Ushbu parcha Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasidan olingan bo'lib, ajratilgan jumla ma'nosi – “uzoqdan qandaydir sarob ko'rindi”.  
B) G'ofur G'ulomning “Shum bola” asaridan olingan bo'lib, parchada ajratilgan jumla ma'nosi – “suvda kimningdir aksi ko'rindi”.  
C) “Shirin qovunlar mamlakatida” asaridan olingan ushbu parchada Akromjonning professor Dar-daraja bilan uchrashib qolish tasviri aks etgan.  
D) G'ofur G'ulomning “Shum bola” asaridan olingan bo'lib, parchada ajratilgan jumla ma'nosi – “chang ko'rindi”.

**40. (Q – 4,5)** Ushbu badiiy parcha haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang

“...Bir hovuch suvni lazzat bilan simirib turgan edim **gard namoyon bo'ldi**. Gard orasidan oriq baytalga bir uzumchi chol paydo bo'ldi. Men uning **bariga yopishib** meni ham o'tkazib qo'yishini iltimos qildim.

- A) G'ofur G'ulomning “Shum bola” asaridan olingan bo'lib, parchada ajratilgan jumla ma'nosi – “etagiga yopishib”.  
B) G'ofur G'ulomning “Shum bola” asaridan olingan bo'lib, parchada ajratilgan jumla ma'nosi – “otiga mingashib”.  
C) “Eng og'ir gunoh” asaridan olingan ushbu parchada bola o'yinqaroqligi sabab, onasini ranjitib qo'ygani haqida hikoya qilinadi. Ajratilgan jumlaning ma'nosi – “xiralik qilib”

D) Ushbu parcha Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasidan olingan bo‘lib, ajratilgan jumla ma’nosi – “hamma hiyla-nayrangni ishga solib”.

**41. (Q – 4,5)** Ushbu badiiy parcha haqidagi to‘g‘ri ma’lumot keltirilgan qatorni aniqlang.  
Nahot bir marta qayrilib ham qaramasa? Aqalli xayrlashmasa? “Kelinoyi! Menga bir qarang!  
Mening dardimga quloq soling! Nima qilay, shunday bo‘ldi... Men sizni... shunday yaxshi  
ko‘raman, shunday yaxshi ko‘raman!...”

Arava yonginamdan o‘tib ketdi. Men, dilim qon, unga iltijo qilganimcha orqada qoldim.  
Arava muyulishdan burilib ketdi, kelinoyim hatto qo‘lini ham siltamadi. U mening  
“yaxshiligim”ni kechirmagan, kechirolmagan edi.

A) Parcha Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasidan olingan bo‘lib, urush yetkazgan chuqur  
jarohatlar haqida.

B) “Eng og‘ir gunoh” asaridan olingan ushbu parchada bola o‘yinqaroqligi sabab, onasini  
ranjitib qo‘ygani haqida hikoya qilinadi.

C) Parcha O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurban” hikoyasidan olingan bo‘lib, bir  
mushtipar ayolning boshiga tushgan savdolar haqida.

D) “Nima qilib qo‘yding, Sherzod?” asaridan olingan ushbu parchada hayot sinovlariga  
bardoshi yetmagan o‘smir haqida hikoya qilinadi.

**42. (Q – 4,5)** Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

Egnida ko‘k ko‘ylak, boshida ko‘k ro‘mol... Ko‘nglim xufton, men kecha-yu kunduz uning  
yo‘lini poyladim, bir og‘iz so‘ziga zor, uydan chiqqanida ko‘zlariga tikildim, lekin u har safar  
meni ko‘rganda uzoqdan teskari burilib ketar edi. Bir oydan keyin kelinoyim o‘z eliga  
ketadigan bo‘ldi. Qarindoshlarimizdan bittasi xo‘jalikdan arava so‘rab chiqdi. Men loaqlal  
xayrlashar, aqalli yaxshi kunlar xotirasi uchun bir og‘iz bir gap aytar degan umidda ertalabdan  
yo‘lini poyladim.

A) “Nima qilib qo‘yding, Sherzod?” asaridan olingan ushbu parchada yaxshi tarbiya  
ko‘rmagan bezori bolaning quyushqondan chiqqan qiliqlari sabab bir begunohning majruh  
bo‘lib qolganligi haqida hikoya qilinadi. Ajratilgan jumlada odatdagи libosda ekanligi  
tasvirlangan.

B) “Eng og‘ir gunoh” asaridan olingan ushbu parchada bola o‘yinqaroqligi sabab, kelinoyisini  
ranjitib qo‘ygani haqida hikoya qilinadi. Ajratilgan jumlada aza libosi tasvirlangan.

C) Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasidan olingan bo‘lib, matnda ajratilgan jumladan  
yaqiniga motam tutayotgan ayol tasvirini anglash mumkin.

D) “Nima qilib qo‘yding, Sherzod?” asaridan olingan ushbu parchada hayot sinovlariga  
bardoshi yetmagan o‘smir haqida hikoya qilinadi. Ajratilgan jumlada aza libosi tasvirlangan.

**43. (Q – 4,5)** Bu asar haqida muallif shunday yozadi: “Bu qissa katta-kichik hikoyalardan  
iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam – onam siymosi bor. Bundagi odamlarning  
hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqt ba’zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu  
odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog‘langan”. Muallif nazarda tutgan  
asarga tegishli fikrlar keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Muallif nazarda tutgan asar “Nima qilib qo‘yding, Sherzod?” asari bo‘lib, asarda tarbiyasi  
og‘ir bolaning cho‘zmaga tosh solib otishi, oqibatda ilmga chanqoq tengdoshini bir umrga

mayib qilib qo‘yishi haqidagi voqealar hikoya qilingan.

B) Muallif nazarda tutgan asar “Dunyoning ishlari” qissasi bo‘lib, undagi “Eng og‘ir gunoh” hikoyasida qahramonning o‘yin qaroqligi sababli onaning nohaq dashnom eshitgani, oqibatda ona ko‘ngliga ozor yetgani haqidagi voqealar hikoya qilingan.

C) Muallif nazarda tutgan asar “Yaxshilik” deb nomlangan bo‘lib, asarda qahramon o‘zi bexos guvohi bo‘lib qolgan voqeani barchadan sir tutishi oqibatida bir begunohning qattiq jabr ko‘rgani haqida hikoya qilingan.

D) Muallif nazarda tutgan asar “Yaxshilik” deb nomlangan bo‘lib, asarda munis va mushfiq kelinoyisiga xushxabar yetkazaman deya o‘zi istamagan holda “aybdor” bo‘lib qolgan bolaning iztiroblari haqida hikoya qilinadi.

**44. (Q – 4,5)** “Gap qo‘shmay tursangiz, hammasini bir boshdan so‘zlab beraman, bo‘lgan voqeа qanday yuz bergen bo‘lsa, qasam ichib aytamanki, hech narsa qo‘shmasdan, hech narsani olib tashlamasdan shundayligicha aytaman. Yolg‘onchi emasman. Yolg‘on gapirgan odamni ko‘rsam, meni yetti kun hiqichoq tutadi...”

Ushbu parchada muallif voqeani nechanchi shaxs nomidan bayon qilgan?

A) Voqealar uchinchi shaxs nomidan, xuddi chetdan kuzatayotgan begona tomonidan aytib berilgan.

B) Voqealar bevosita ishtirokchi tilidan, ya’ni birinchi shaxs nomidan aytib berilgan.

C) Ba’zi o‘rinlarda uchinchi shaxs nomidan, ba’zi o‘rinlarda esa birinchi shaxs nomidan bayon etilgan.

D) Voqealar xuddi chetdan kuzatayotgan begona nomidan bayon qilingan.

**45. (M – 5,5)** “Yaxshilik” hikoyasidan keltirilgan ushbu parchadan buvi tasviriga nisbatan to‘g‘ri mulohazani aniqlang.

“Nihoyat, bir haftadan keyin buvim o‘zi meni chaqirib oldi. Men uning allaqanday cho‘kib qolgan jussasini, bir parcha bo‘lib qolgan yuzini ko‘rdim-u, o‘zimni uning bag‘riga otib, yig‘lab yubordim”.

A) Ushbu parchada muallif urushda bedarak yo‘qolgan farzandini intazorlik bilan, umidi so‘nmay kutishga toqati yetgan, o‘zida kuch topa olgan onani tasvirlagan.

B) Ushbu parchada muallif o‘g‘lini urushga kuzatgan onaning sog‘inch azobidan o‘rtanayotganini, mashaqqatli mehnatdan ozib-to‘zib ketganini tasvirlagan.

C) Ushbu parchada muallif o‘zining yurak-bag‘ri o‘rtanib tursa-da, nabirasi va kelinining qalb jarohatiga malham bo‘lishga kuch topa olgan ONAning iztirobli holatini aks ettirgan.

D) Ushbu parchada buvi nabirasining holatini tushunib, nabiraning og‘riqlariga malham bo‘la olgani tasvirlangan.

